




ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998945668868

<https://innoworld.net>

2025



INNOVATIVE WORLD

«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

innoworld.net



SHARQ VA G'ARB TA'LIMOTLARIDA INSON ANTROPOLOGIYASI MASALALARI

Ergashev Ozodbek Shavkatovich
Senior Lecturer of the "Humanities" Department,
Andijan State Technical Institute

Falsafiy antropologiya fani muammolaridan biri Sharq va G'arb falsafiy maktablari hamda ularda insonga nisbatan munosabatlarning umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Sharq falsafasida inson va uning paydo bo'lishi bilan bog'liq qarashlar Hindiston va Xitoyda paydo bo'lgan diniy - falsafiy qarashlarda, shuningdek, xalqimizning islomgacha bo'lgan e'tiqodlari bilan bog'liq manbai "Avesto"da o'z ifodasini topadi. Sharq falsafasi merosidagi inson bilan bog'liq ilk demokratiya va qadriyatlar, zardushtiylilik ta'limotida amal qilgan. Ushbu ta'limot insonning yer yuzidagi hayotini yengillatishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan eng baxtiyor dindir. [1.4]

"Avesto" da bayon qilingan bashoratlarda Odam Ato haqidagi rivoyatlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda Iyim nomi bilan, yerdagi birinchi odam va uning faoliyati yozilgan. U Oxuramazda irodasiga muvofiq hayvonlarni va qushlarni parvarishlagan. Yer yuzida qizil shu'lali olovni ko'paytirgan va shu tarzda 300-yil yashagan. Oxuramazda unga oltin nayza va oltin qamchi hadya etgan. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganda, Iyim nayzani yerga suqib, uni kengaytirishni buyurgan. Oxuramazda Odam atoga muzlik davri yaqinlashayotganidan xabar bergan. Iyim xudoning yordamida maxsus uy qurib, hamma hayvon va o'simliklarning eng yaxshi zoti va navidan bir juftdan saqlagan. U o'z ishidan g'ururlanib xudo taqiqlagan ne'mat - yirik shohli hayvon go'shtidan tanovul qilgan. Oqibatda u, xudoning qahriga uchragan va abadiylikdan mahrum bo'lgan. Tabiat bilan inson o'rtasidagi bog'liqlik, insonning paydo bo'lishida o'simlik va hayvonot olamining hissasi katta ekanligi to'g'risidagi rivoyatlar ham "Avesto"da quyidagicha bayon qilinadi: Navro'z, bahor bayrami, katta shodiyona bilan kutib olingan. Dehqonchilikning boshlanishi yovuz kuchlarning, ya'ni, devlarning chekinishiga sabab bo'lgan. Bahorning ilk kunlarida gullaydigan va meva tugadigan Xoma daraxtining mevasidan yegan ayol va kelinlar, albatta o'g'il farzand ko'rishlari, bunday farzandlar ona zaminga, vatanga muhabbat ruxi bilan dunyoga kelishi to'g'risidagi rivoyatlar, insonning tabiatning bir qismi ekanligi to'g'risidagi g'oyalar, ajdodlarimizning antropologik qarashlari o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Sharq falsafasida, jonning o'lmasligi haqidagi tasavvurlar qadimdan paydo bo'lgan bo'lib, qadimgi odamlar o'z tanalarining tuzilishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lmay, hatto uyqu holati va tush ko'rishning sabablarini ham izohlay olmagani. Shundan so'ng, ibtidoiy odamlarda inson tanasini



boshqaradigan qandaydir alohida kuch mavjud bo'lib, bu kuch inson o'lgandan keyin, tanadan chiqib ketadi degan tasavvurlar paydo bo'lgan. [2.23] Jon va ruxlarning mavjudligi to'g'risidagi ta'limotlar, Sharq xalqlarining barchasiga tegishli bo'lib, uning yaratuvchisi Xudo - oliy rux hisoblangan.

Ko'pchilik mutaxassislar, Sharq ta'limotlarida antropologik qarashlar yo'q,- deya munosabat bildiradilar. "An al - Xaq"[3.37] (Men Haqman) deya xitob qilgani uchun, vahshiyona o'limga hukm qilingan Mansur Xalloy, men Xudo bilan birgaman, u men bilan, men esa u bilan uyg'unman, deya insonga munosabat bildirgan edi. Bu naql "O'zini bilgan Xudoni ham biladi" [4.20] degan hadis bilan uyg'unidir.

Mansur Xalloy, - Xudoni tashqaridan izlamang, osmonlardan izlamang, u ichingizdadir, deb aytganida, Mavlono Jaloliddin Rumiy - "Ichingdagi ichingdadir" - deya, xitob qilganida albatta, inson olamning markazi, borliqning gultoji ekanligi to'g'risidagi antropotsentristik g'oyalar nafaqat G'arb balki, Sharq mutafakkirlarining g'oyalarida ham amal qilganligini isbotlaydi.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Forobiy, inson (insoniy vujud va boshqa vujudlar) ning paydo bo'lishi haqida gapirib, "Zaruriy vujud va vujudi mumkin" deya uni 2 qismga bo'ladi. U insonni zaruriy vujudan paydo bo'lgan vujudi mumkin sifatida e'tirof etadi. Farobiyning fikricha borliq (mavjudot) 6 bosqichdan iborat bo'lib, bu bosqichlar ayni vaqtda butun mavjudlikning (insonning ham) asosidir. Ular bir - biri bilan uzviy sabab va oqibat munosabatlari tarzida bog'lanadi. Birinchi bosqich, ya'ni sabab (as-sabab al-avval-Ollox), ikkinchi bosqich, osmoniy jismlar (as-sabab as-soniy) uchinchi, faol aql (al-aql al-faol), to'rtinchisi, jon (an-nafs), beshinchisi, shakl (as-surat), oltinchisi materiya (al-modda). Ilohiy mohiyat va mavjudlikning o'zaro aloqadorligidan vujudning ikki xil jihati paydo bo'ladi. Birinchisi, "zaruriy vujud" ya'ni, o'z - o'zicha mavjud narsalar. "Vujudi mumkin" ya'ni, boshqa mavjudlik evaziga vujudga keluvchi narsalar. "Vujudi mumkin" mavjud bo'lishi uchun u albatta "zaruriy vujud"ga muhtojdir. Demak, Farobiyning ushbu qarashlaridan anglash mumkinki, inson ham yuqoridagi har ikki vujudning hosilasi hisoblanadi. Chunki, Farobiy Ollohn birinchi sabab va mohiyat sifatida ko'radi. Birinchi sabab abadiy, ikkinchi sabab ya'ni, "vujudi mumkin" ning abadiyligiga esa shubha bildiradi. Ammo, Farobiyning ta'kidlashicha, eng muhim narsa bu emas, eng muhimi "... abadiy mavjudlik - nomavjudlikdan xalos etuvchi mohiyatdir". [5.172]

Forobiy ta'limotida, barcha yer yuzi va osmon sathi jismlilik ya'ni, moddiylik "zaruriy vujud" ning hosilasidir. Barcha narsalarni u olti turga bo'lib ta'riflaydi: osmon jismlari, aqlli hayvonlar (odamlar), aqlsiz hayvonlar, o'simliklar, minerallar va to'rt element (olov, havo, tuproq va suv). So'nggi to'rt element jismlilik va moddiylikning, barcha jismlarning asosi bo'lib, materiyaning eng sodda turlaridir. Qolgan besh turi barcha "zaruriy vujud"



larning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri bo'lgan.

Imom G'azzoliy ham, "Azbaroyi insonni o'yin uchun yaratmamishlar, uning amali ulug' va uning uchun buyuk xatar bordir" deya, insonning bu olamdagi o'rni va vazifasiga ishora qilgan edi.

Shunday qilib, ko'plab faylasuflar tomonidan ilgari surilgan "Inson nima" degan savol, Sharq va G'arb falsafiy antropologiyasi uchun, uning falsafiy muammolarini belgilovchi bosh masala hisoblanadi va u, falsafiy tafakkurning aynan ushbu yo'nalishida Sharq va G'arb antropologiyasidagi umumiylik va ayrimlikning o'ziga xosligida namoyon bo'luvchi ta'limotlarda yanada oydinlashadi.

Qadimda Sharq va G'arb insonini birlashtirgan davrlar, qadimgi Sharq va G'arb madaniyatlarining integratsiyalashuvidan vujudga kelgan "Ellinizm madaniyati" da ham ko'zga tashlanadi.

Qadimgi Sharq madaniyati ta'sirida rivojlangan Yunon va Rim madaniyati Egey dengizidan Hindistongacha bo'lgan hududlarda va Misrda ellinizm madaniyatining vujudga kelishiga asosiy sabab bo'ldi. Qadimgi Sharq madaniyati, ushbu hududlarda insonga nisbatan kosmopolitizm (dunyo fuqaroligi) tushunchasining vujudga kelishida o'ziga xos vazifani bajardi. Ibtidoiy jamoadan sinfiy jamiyatga o'tish davrida, Ma'budlar haqidagi tasavvurlar o'zgardi. Er. avv. VIII-VII asrlarda ko'plab mahalliy va umumyunon Ma'budlarini tartibga solish ehtiyoji tug'ildi. Aynan shu davrlarda antropomorfizm ya'ni, insonni ilohiylashtirish, inson qiyofasidagi xudolarni o'lmaydigan va abadiy yosh bo'lib turadigan kuchli, go'zal kishilar sifatida tasvirlash urf bo'la boshladi.

Zamonaviy mistik faylasuf Osho Rajnish (1931-1990)ning "Yangi insonning kelishi" bilan bog'liq g'oyalarida g'arbona va sharqona g'oyalarning uyg'unlashuvi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Yangi inson o'zida G'arb va Sharq insonining barcha ezgu jihatlarini qamrab olishi kerak, deydi Osho. Unga Zorbo-Budda deb nom beradi. Zorbo ratsional aql egasi, Budda esa avliyo. Zorbo moddiy yaratilgan barcha narsalarni sevadi, ularga muhabbat qo'yadi, moddiylikka nisbatan aql bilan munosabatda bo'ladi. Budda esa "tarki nafs" g'oyasiga amal qilgan, ehtiroslardan forig' bo'lgan donishmand. Osho ta'kidlaganidek, Zorbo daholikda to'kis va komil bo'lmaganidek, Budda ham tor ko'ngil, noto'kisdir. Ularning har ikkisi yarim, nisbiy haqiqat egalari. "Men Zorboni sevaman, men Buddani sevaman"- deydi, Osho Rajnish. Ammo ularning birida ruh, birida esa vujud yo'q. "Men sizlarga Zorbo-Budda nomli yangi insonni taklif etaman. Men sizga buyuk uchrashuvdan - osmon va yerning, botiniy va zohiriy dunyolarning, hayot va o'limning, qarama-qarshi qutblarning, erkak va ayolning, kun va tunning, yoz va qishning ... uchrashuvidan ta'lim beraman. Mana shu uchrashuv natijasida yer yuzida "Yangi Odam" paydo bo'ladi. [6.118]



Bugungi kunda globalashuv jarayoni, sivilizatsiyalar birlashuvi natijasida yer yuzida, yangi inson turining vujudga kelishi uchun mavjud sharoit yaratmoqda. Endilikda, global inson dunyoqarashiga muvofiq keladigan "Global ma'naviy konsepsiya"ga zarurat tug'iladi. [7.39]

Ushbu jarayon bilan bog'liq harakatlar 2013-yilda O'zbekistonda, chet tillarni va ayniqsa, ingliz tilini o'qitish kichik yoshdagi bolalardan tortib to, ta'limning yuqori bosqichlarida olib borilishi nazarda tutilgan bo'lib, aynan ushbu jarayon, sivilizatsiyalar birlashuvini tezlashtiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu esa yerda yangi odam paydo bo'lishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.С.Саифназаров. Шарқ фалсафасидаги инсонпарварлик ва адолат тамойиллари демократлаштириш жараёнининг муҳим омили сифатида.Т.: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 2013.-Б.4.
2. Абдусамедов А. Динлар тарихи.Т.:Ўқув қўлланма.2004.-Б.23.
3. Комилов Н.Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Тавҳид асрори. -Т.: Ўзбекистон, 1999. -Б.37,48.
4. Мавлоно Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. (Улуғбек Ҳамдам таржимаси). Т.: Янги аср авлоди. 2003. – Б.20.
5. Фарабий. Существа вопросов:Избранные произведения мыслителей Ближнего и Среднего Востока.М.: 1986 г.-С.172.
6. Сто пророчеств Ошо.-Минск.2004.С.118-120.
7. Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч"-Т.: Маънавият.2008.-Б.39-43.

